

**KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA  
KOMPETENTLIKKA YO'NALTIRILGAN TURLI TIPDAGI  
MASALALARNI YECHISH METODIKASI**

*Buzrukov To'lqin Omonovich*

*Tayanch doktorant, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi*

+998915838200 [tolqinbuzrukov5@gmail.com](mailto:tolqinbuzrukov5@gmail.com)

Muammoli va baholovchi masalalar maktab fizika kursida yangi didaktik vositalar hisoblanadi. Ularda texnik ob'ektlar yoki ishlab chiqarish vaziyatlari keltirilmaydi. Lekin, ular ta'limning amaliyotga yo'naltirilganlik prinsipini joriy etish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan. Chunki, ularda inson hayotida uchraydigan vaziyatlar va talablar aks etdiriladi.

Jumladan, Umumta'lim tizimi uchun tasdiqlangan Davlat ta'lim standartlari bo'yicha fizika faniga oid quyidagi kompetensiyalarni o'quvchilarda shakllantirish rejalashtirilgan.

1. Fizik jarayon va hodisalarni kuzatish, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi;
2. Tajribalar o'tkazish, fizik kattaliklarni o'lchash va xulosalar chiqarish kompetensiyasi;
3. Fizik bilimlar va asboblardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi.

O'quvchilarda mazkur kompetensiyalarni shakllantirishda amaliyotga yo'naltirilgan "turli tipikdagi masala"larni yechish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun fizik bilimlaridan foydalanib kundalik hayotlarida uchraydigan bunday muammolarni yechish bilan bog'liq turli tipdagi masalarni ajratib olish va ularni yechish metodikasini Umumta'lim maktab o'quvchilarga o'rgatish kerak bo'ladi.

Turli tipdagi deyilganda inson oldiga ma'lum hayotiy vaziyatlarda ko'p marta qo'yiladigan maqsadlar tushuniladi.

Insonning kasbiy faoliyatida va maishiy sharoitda fizikadan egallagan bilimlarini qo'llab yechiladigan tipik masalalarni quyidagi tiplarga ajratish mumkin:

1. Berilgan xossalarga ega bo'lgan ob'ektlarni hosil qilish;
2. Konkret masalani yechish texnologiyasi (metodi)ni ishlab chiqish;
3. Ob'ektning parametrlarining belgilangan me'yordan chetlashishini yo'qotish;
4. Ob'ektni berilgan xossalarini o'zgartirmasdan saqlash yoki bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish;
5. Ob'ektni belgilangan holatda tavsiflovchi fizik parametrlarni topish yoki baholash;



6. Ob'ektning ishlashini, texnologik jarayonni boshqarish;
7. Texnik ob'ektni ekspluatatsiya qilish.

Inson kundalik turmushida duch keladigan muammolarda fizikadan egallagan bilimlarini qo'llab yechadigan tipik masalalardan ayrimlarini quyida keltiraylik.

1. Berilgan xossalarga ega bo'lgan ob'ektlarni hosil qilish bo'yicha:

1. Uy sharoitida ipak qurtini boqish uchun undagi temperatura 25-30 OS bo'lishi kerak. Uy sharoitida shunday temperaturani doimiy ushlab turuvchi qurilmani ishlab chiqing.

2. Xona o'simliklari uchun tuproq namligi doimo ma'lum bir me'yorda bo'lishi kerak. Siz ta'tilga chiqib, dam olish uchun boshqa joyga ketganingizda shu namlikni saqlab turuvchi qurilmaning loyihasini ishlang.

3. Ko'pgina joylarda elektr energiyasi ta'minotida uzilishlar bo'lib turadi. Sovutgichda mahsulotlar buzilmasligi uchun nima qilish mumkin?

2. Konkret masalani yechish texnologiyasi (metodi)ni ishlab chiqish.

1. Ko'pgina sovutgichlarda muzlatgich qismi qor va muz bilan qalin qoplanib qoladi. Uni tezda muzdan tushirish yo'lini o'ylab toping.

2. Ma'lumki piyoz to'g'ralganda ko'zdan yosh oqadi. Undan qutiladigan usullarini taklif qiling.

3. Tashqarida yo'llar muzlagan. Uydan maktabga borib-kelish uchun xavfsizlik usullarini tavsiya qiling?

3. Ob'ekt parametrlarining belgilangan me'yordan chetlashishini yo'qotish.

1. Elektr choynagida qisqa tutashuv yo'qligini qanday tekshirish mumkin?

2. Sizing xonangizda namlik yuqori bo'lsa, uni qanday qilib me'yorga keltirish mumkin?

3. Uyda yashaydigan hayvonlardan chiqadigan yoqimsiz hidni qanday yo'qotsa bo'ladi?

4. Ob'ektning berilgan xossalarini o'zgartirmasdan saqlash yoki bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish.

1. Yoz kunlaridan birida uydagi sovutgich ishdan chiqdi. Uni tuzatguncha oziq ovqatlarni buziltirmasdan qanday saqlash mumkin?

2. Issiq yoz kunlarida dala hovliga keldingiz. Sovutgichsiz ovqatlarni qanday saqlagan bo'lar edingiz?

3. Kasalxonada yotgan bemorga issiq ovqat olib borish kerak. Termossiz uni issiq holda qanday etkazsa bo'ladi?

5. Ob'ektni belgilangan holatda tavsiflovchi fizik parametrlarni topish yoki baholash.



1. Sizda 0,8 l li shisha banka bor. Unga 1 kg asalni sig' dirish mumkinmi?
2. Yer sirtida turib quduqning chuqurligini aniqlash mumkinmi?
3. Xona temperaturasini termometersiz qanday baholash mumkin?
6. Ob'ektning ishlashini, texnologik jarayonni boshqarish
  1. O'zbek xalq ertagida o'gay ona qizchaga bir qop mosh bilan bir qop makkajuxori donlarini aralashtirib bir kechada ularni bir-biridan ajratib qo'yishni topshiradi. Uni ajratishga yordam bering.
  2. Elektr tandiridagi temperaturani boshqaradigan qurilmani o'ylab toping.
  3. Gaz bilan isitiladigan kolonkada suv va gaz oqimini boshqaradigan qurilmaning loyihasini tuzing.
7. Texnik ob'ektni ekspluatatsiya qilish.
  1. Printer katrijini almashtirishda bajariladigan ishlar ketmaketligini yozing.
  2. Diskka uning belgilangan hajmga nisbatan ko'proq axborot yozish uchun qilinadigan ishlarni ayting.
  3. Mobil telefonni elektr energiyasi yo'q joyda zaryadlash yo'lini izlab toping.

### Xulosa

1. Umumta'lim maktab o'quvchilarda fizikaga oid kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy tamoyillaridan biri – bu nazariyani amaliyot bilan bog'lash ekanligini inobatga olgan holda, fizika o'qitishning amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish hamda ulardan kundalik hayotda uchraydigan muammolarni yechishda foydalanish zarurati mavjud.
2. Kompetentlikka oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirishda turli tipdagi masalalar yechish o'quvchilarning amaliy ko'nikmalari bilan bog'liq.
3. Insonning kasbiy faoliyatida va maishiy sharoitda fizikadan egallagan bilimlarini qo'llab yechiladigan turli tipdagi masalalar o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishda ahamiyatli.
4. O'quvchilarda kompetentlikni shakllantirish va darslarda kompetentlikka yo'naltirilgan topshiriqlarni bajarish samarali usul bo'lib, undan fizikaga oid kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha masalalar yechishdan namuna sifatida foydalanish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buzrukov T.O. Ta'lim tizimiga kompetensiyani kirib kelish tarixi // INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM Washington, USA 25th January 2021 7-8-9-10-11b.





2. Buzrukov T.O. Formirovanie kompetensiy shkolnikov v reshenii zadach po fizike // «NAUKA I MIR» Mejdunarodnyy nauchnyy jurnal, № 2 (90), Volgograd, 2021 g. S. 8-9

3. Buzrukov T.O. Formirovanie fizicheskoy kompetentnosti u shkolnikov // STRATEGIYA NAUCHNO-TEXNOLOGICHESKOGO RAZVITIYA - 2021 30 yanvarya g. Kemerovo S. 28-31

4. Buzrukov T.O. Fizikadan masalalar yechishda kompetensiyaviy yondashuvning uslubiy imkoniyatlari // Ta'lim, fan va innovatsiya" jurnalining 29.07.2022 72-75 betar, ISSN 2181-8274 2022-yil 2-son.

